




2025-2026-o'quv yiliga tayyorgarlik

Hurmatli oilalar va hamkasblar,

Yana yilning o'sha vaqti keldi! Biz ajoyib Summe Rising dasturimizni yakunladik, o'qituvchilar tez orada o'z sinf xonalariga qaytishadi va 4-sentabr kuni maktablarimiz o'qishga tayyor o'quvchilar bilan to'ladi.

Ular aql bovar qilmaydigan yutuqlarga erishadilar - 2025 yilgi Nyu-York shtat imtihonlarida malaka ko'rsatkichlari matematikadan 3,5 foiz punktga, o'qish bo'yicha esa 7,2 foiz punktga ko'tarildi! Men NYC Reads, NYC Solves va ushbu natijalarga olib kelgan barcha akademik tashabbuslarimizni amalga oshirgan barcha NYCPS hamjamiyati - o'qituvchilar, oilalar va o'quvchilar bilan juda faxrlanaman.

Yangi o'quv yili boshlanishi bilan biz yana o'rganish, o'sish va kashfiyot yili sari qadam qo'yamiz. Oilalar uchun 4-sentabr kuni maktabga qaytishga tayyorgarlik ko'rayotganimizda bir nechta muhim eslatmalar:

- Shtatning yangi uyali telefon bo'yicha qonuni joriy o'quv yilidan kuchga kiradi. Batafsil ma'lumot ilish uchun schools.nyc.gov/DevicePolicy sahifasiga kiring.

- Farzandingiz maktabi siz bilan bog'lash olishiga ishonch hosil qiling – kontakt ma'lumotlaringizni yangilash uchun [NYC maktablari hisobi](#) (NYCSA) akkauntingizga kiring.
- Farzandingizning transport imkoniyatlari va mosligini tushunib oling. Batafsil ma'lumot uchun [schools.nyc.gov/Transportation](#) sahifasiga kiring.
- Farzandingiz zarur [emlamlarni](#) olganligiga ishonch hosil qiling. Farzandingiz maktabga yoki bog'chaga birinchi marta borayotgan bo'lsa, u shifokor tomonidan [jismoniy tekshiruvdan](#) ham o'tishi kerak.
- Asosiy sanalar va voqealarni qayd etish uchun [2025-2026 yillar taqvimini](#) to'liq ko'ring.

Qo'shimcha ma'lumot va maktabga qaytish faoliyati ro'yxati uchun [schools.nyc.gov/BackToSchool](#) sahifasiga tashrif buyuring. Shuningdek, har qanday savol yoki muammo bilan maktabingizning ota-onalar koordinatoriga murojaat qilishingiz mumkin; ularning aloqa ma'lumotlarini bizning "[Maktabni topish](#)" vositamiz orqali topishingiz mumkin.

Barchangizni ko'rishni va 2025-26 o'quv yilida ko'plab ajoyib kunlarning birinchisini nishonlashni sabrsizlik bilan kutib qolamiz!

Hamkorlikda,

Melissa Aviles-Ramos
Maktablar tizimi rahbari

Kansler diqqat markazida

O'tgan iyul va avgust oylarida Sharqiy Garlemdagi River East boshlang'ich maktabidagi Summer Rising dasturi jonli ta'lim muhiti boldi. Ko'plab jamoat tashkilotlari bilan hamkorligimiz tufayli o'quvchilar suzishdan tortib raqsga qadar bo'lgan tadbirlarda ishtirok etishdi, "Summer Rising" o'quvchisi Fernando buni yozning eng muhim voqealari sifatida qayd etdi. U, shuningdek, "O'qituvchim ta'limni qiziqarli qildi", deya o'qish qiziqarli bo'lganini ta'kidladi.

Rektorning diqqat markazida bo'lgan shaxs yoki dasturni [bu yerda](#) ko'rsating.

Bizning diqqatga sazovor videomiz:



Tarjimalar uchun [YouTube](#) sahifamizga kiring. arjima qilingan taglavhalarga kirish uchun: “CC” belgisini bosing. “Sozlash” belgisini bosing va “Taglavhalar/CC” bandini tanlang. “Avtomatik tarjima qilish” bandini tanlang va tilingizni tanlang.

NYCPS Yangiliklari va Resurslari:

- Bizning [2025-yilgi shtat bo'yicha tst natijalarimiz](#) haqida [Ertalabki qo'ng'iroq](#) orqali bilib oling!
- Yangiliklarni bilish, resurslarga ega bo'lish uchun NYCPS [Facebook](#), [Instagram](#), [X](#), va [YouTube](#) sahifalariga obuna bo'ling.
- Bu yerda [haftalik video](#) dan Mayor Eric Adams. Yangilanishlarni to'g'ridan-to'g'ri Mayor's Idorasidan olishni istasangiz, [Iltimos, bu yerga bosing](#).

NYCPS oilalari: Agar siz ushbu xabarnomani boshqa olishni xohlamasangiz, iltimos [obunadan chiqish](#).